

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

uchun yadro ishlab chiqarilgan. Xuddi shunday korxonalar boshqa xonliklarda ham mavjud bo'lgan. Birgina Toshkent shahrining o'zida 1870- yilda 775 ga yaqin to'quvchilik ustaxonasi faoliyat ko'rsatib turgan.

Mahalliy sanoatining rivojlanishini paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lib qolgan paxta tozalash, yog', sovun pishirish korxonalari tarmog'i kengaygan. O'lkada 1895-yildan 1914-yilgacha 11 ta urug' zavodi, o'nlab ko'n, g'isht, ohak qizdirish, mis eritish, jun yuvish sexlari, vino, pivo, farmasevtika, oziq ovqat korxonalari ishga tushirilgan. Viloyatlarda sanoat bir xilda rivojlanmagan. 1880-yildan 1914-yilgacha Farg'ona viloyatining 224 ta, Samarqand viloyatida 163 ta, Yettisuv viloyatida 107 ta korxona bunyod etilgan. XIX asr oxirigacha Buxoroda texnik jihatdan mutaxassislar yo'qligi sabali hunarmandchilik ishlab chiqarish past darajada bo'lgan. 1905-yilga kelib amirlikda 9 ta paxta tozalash zavodi mavjud bo'lib 2 million 500 ming pud paxtani qayta ishlagan.

Birinchi jahon urushi arafasida esa amirlik hududida 50 dan ortiq korxona mavjud bo'lib shundan 26 tasi paxta tozalash zavodi bo'lgan. Ularning ham asosiy qismi amirlikning rus shaharlarida joylashtirilgan. Kogonda 15 ta paxta tozash zavodi, yog' zavodi vat emir yo'l ustaxonasi, Chorjo'yda 10 ta paxta zavodi mavjud bo'lgan¹. Sanoat korxonalarining kamligi sababli ishchilar safi ham oz sonli edi. Ishchilar bor yo'g'i 3,5 ming kishini tashkil etib aholining 0,2 foiz tashkil qilagan. Buxoro temir yo'li qurilishi munosabati bilan mavsumiy ishga qabul qilganlar hisobidan ishchilar soni 7 ming kishini tashkil etagan. Paxta tozalash, jun, yog' sanoatida mavsumiy mehnat ommalashgan edi. Korxonalar hajmining kichikligi, texnika ta'minotining zaifligi doimiy ishchi kadrlar avvalo, kon qazish sanoatida va temir yo'l qurilishida ko'proq vujudga kelgan.

Shaharlar aholisi butun aholiga nisbatan ikki baravar tezroq ko'payib borgan. Qishloq xo'jaligida ham o'zgarishlar sodir bo'lib, sug'oriladigan yer maydonlari va qishloq xo'jali mahsulotlari ishlab chiqarish ancha ko'paydi, asosiy ekinlar hosildorligi ko'tarilgan. Chinni buyumlar savdosida esa Kuznesov va Gardner shirkatlari Turkiston bozorida hukmron mavqeni egallagan.

Xulosa qilib aytganda, tashqi va ichki savdo asosan XIX asr boshlarida o'z faoliyatlarida namoyon eta boshladi. Turkistonda yagona ichki bozorining shakllanishi boshlandi. XIX asr 50-60 yillarida ham Buxoro, Xiva Qo'qon xonliklari Rossiya o'zlarining tayyor mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilgan. Shuningdek, Rossiya ham xonliklarda tayyor mahsulotlari bilan savdoda qatnashgan. Bunday teng va adolatli savdo aloqalari har ikki mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

BUXORO AMIRLARINING KUNDALIK DINIY AHKOMLARI

Olimova Dilsora
BuxDU, magistrant
Bobobjonova Feruza
t.f.n., dotsent, BuxDU

Barchamizga ma'lumki, Turkiston azaldan islom dini markazlaridan biri bo'lgan. Jumladan, buyuk muhaddis, "Sahihi Buxoriy" asari muallifi Imom Abdulloh bin Ismoil Buxoriy, "Badia' vazoi'" asari muallifi Imom Kosoniy, "Sahihi mutavafi" asari muallifi Abu Lays Samarqandiy, "Tafsir ma'rifat" asari muallifi Imom Taqi, "Sati" kitobi muallifi Imom Abu Dovud, "Shamoil Muhammad" asari muallifi Iso at-Termiziy, "Hindiston tarixi", "Tarixi Ma'sudiy" asarlari muallifi Abu Rayhon Beruniy, "Kitob ash-shifo", "Al-Qonun" asarlari muallifi Ibn Sino, "Daqoiq", "Axbor", "Islom shariati" asarlari mualliflari Nasr bin Muhammad Samarqandiy va boshqalarning ham aynan Turkiston diyoridan chiqqanligi ham fikrimizning dalilidir. Shunday ekan o'z-ozidan savol kelishi tabiiy bunday tabarruk yurtning amirlari diniy ahkomlarga qanday

¹ U. Rashidov O'. Rashidov – "XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar " "Buxoro" Nashriyoti 2011-y

qarashgan? Amirlik hayotidagi din qay darajada muhimlik kasb etgan? Bunday masalalarning javobini juda kòp asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, "Risola yoxud Mangitlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida: "Amir Doniyol boshqaruv davrida amirlik poytaxti Buxoroda xonadon hayotida qabih, o'zgarishlar yuz berdi: aksariyat madrasalarda dars, masjidlarda namoz ta'qiqlanib, madrasalarning hujralari goho meshkobchining eshagi uchun og'ilxona, ba'zan esa baqqolning g'alla omboriga aylandi" ¹ - degan qimmatli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Buning sababi esa ayni Doniyolbiy davrida man-g'itlar xonadonining vakillarining davlat ishlariga aralashuvi va boshboshdoqligini sabab qilib ko'rsatish mumkin edi va bu o'z navbatida diniy hayotga nisbatan ham hurmatsizlik tuyg'usini avj oldirgan. Ammo amirlik vakillarining barchasi ham diniy tomondan bu darajada sustkashlikka yo'l qo'ymaganlar. So'nggi Buxoro amiri Amir Olimxonning o'g'li Sayid Mansur Olimiyning "Buxoro - Turkiston beshigi" asarida: "Amir Muzaffar kuch-quvvatdan qolayotganligini va umri oxirlab borayotganligini his etib, Karmanadagi o'g'li Sayyid Abdulahadxonga quyidagi mazmunda vasiyatnoma jo'natdi: "Senga shuni vasiyat qilamanki, doimo taqvodor va parhezli bo'lg'in. Islom shariati, amirlari va Rasuli alayhi vasallam sunnatlarini to'la bajarib tur. Biz hammamiz bu foniyl dunyodan dorulbaqoga ketguvchilarmiz," - deyilgan. Bundan tashqari, ayni shu asarda Amir Haydar haqida "...U ra'iyatparvar, olim, taqvodor va saxovatpesha hukmdor bo'lib, to'rt yuzta tolibi ilmlarga saboq berdi. Aytishlaricha, behad taqvodorligi bois biror marta tahajjud va ishroq namozini tark etmagan..."² degan ma'lumotlar fikrimizning dalilidir.

Mangitlar sulolasi vakili amir Abdulahad ham diniy ahkomlar va din masalalariga alohida e'tibor bergan. U hattoki, Peterburgda masjid qurdira olgan O'rta Osiyolik hukmdordir. Peterburgdagi musulmonlarning masjid qurish haqidagi orzu-umidlarning ro'yobga chiqarishda Buxoro amiri Sayyid Abdulahadxonning xizmati va tashabbusi katta bo'lgan. U Peterburgda o'qib yurgan yoshlik paytlaridayoq, valiahd Nikolay II bilan do'stona munosabatda bo'lgan ekan. Mana shu sababdan bo'lsa kerakki, ularning har ikkisi o'rtasidagi munosabat, ular taxtga o'tirganlaridan keyin ham yaxshi bo'lgan.

Amir Sayyid Abdulahadxon 1904 - yilda Sankt-Peterburgda bo'lgan paytda, uni rus podshosi Nikolay II o'z saroyida bo'ladigan oilaviy nonushtaga taklif etgan. Mana shu oliy maqomdagi ziyofat paytida amir undan masjid uchun yer ajratishi va uni sotib olishga ruxsat berishini so'ragan. Amir Abdulahadxon ziyofat paytida rus podshosiga rasman quyidagicha murojaat qilgan ekan: "Bugun, 5 - dekabr kuni, Parvardigor bizni siz imperator janobi oliylarining oilaviy yig'inida qatnashish sharafiga muyassar etdi. Sizdek adolatli va muruvvatli podshohi oliy e'tiborlariga ushbu iltimosimizni yetkazishga jur'atlanaman: Ma'lumingizkim, bundan 23 yil muqaddam marhum padari buzrukvorimiz elchisi sifatida kamina imperator Aleksandr III ning taxtga o'tirishi munosabati bilan Peterburg va Moskvaga kelgan edim. Bu paytda peterburglik musulmonlar o'zlariga masjid qurish tashvishida edilar. Hozirga qadar... ular o'z maqsadlarini amalga oshirishga ojizlik qiladilar... Sizdan janobi oliylari, bizga bir parcha yerni sotib olish va uni bu yerlik musulmonlarga in'om etish uchun izn so'rayman...". Mana shunday so'ng 1905 - yil 5 - noyabrda 20 kishidan iborat masjid qurish va unga xayriya yig'ish Qo'mitasi saylangan. Uning tarkibiga yirik musulmon boylar, davlat, harbiy va jamoat arboblari kirgan.

Nikolay II Sankt-Peterburgning Kronverk o'tar ko'chasi (hozirgi Kronverk prospekti) va Konniy ko'chalari tutashgan joydan 250 sarjin (1 sarjin – 2,1 metr) yer ajratgan. Buni Buxoro amiri Sayyid Abdulahadxon 312000 so'mga sotib olib masjid qurish uchun nazr etgan. Dastlab amir Abdulahadxon tasarrufi ostida Jome' masjidi binosi loyihasi uchun me'moriy tanlov e'lon qilingan. Tanlovga yirik mutaxassis, rassom va me'morlardan 45 ta loyiha tushgan. Loyihalar tanlovi 1908 - yil martida yakunlangan. Birinchi o'rinni peterburglik me'morlardan N.V.Vasilyev, M.S.Lyalevich, M.M.Peretyakovichlar egallagan. Ular taqdim etgan loyihalar Samarqanddagi musulmon me'morchiligining o'rta asrlardagi yodgorliklaridan «Go'ri Amir»,

¹ Ahmad Donish. Risola yoxud Mangitlar xonadoni saltanatining qisqacha tarix. - Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediya", 2014. B-18.

² Sayid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi. - Buxoro, 2004. B-60.

«Shohi Zinda» lardagi oʻziga xoslik usullarini aks ettirilganligi uchun ham eʼtirof qozongan. Loyiha 1909 - yil 27 - iyunda Nikolay II tomonidan maʼqullangach, masjid uchun yer qazish ishlari boshlangan. Masjid poydevoriga birinchi tosh qoʻyish marosimi amir Abdulahadxon taxtga oʻtirganining 25 yilligiga bagʻishlab, 1910 - yil fevralida oʻtkazilgan. Masjid poydevoriga birinchi toshni amir Sayyid Abdulahadxon qoʻygan. Shundan soʻng, shu kuni bu yerda musulmonlar birinchi bor namoz oʻqiganlar. Moskva, Kronshtadt, Kavkaz va boshqa musulmonlar markazlaridan kelgan vakillarni qabul qilish marosimi boʻlib oʻtgan. Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan masjid qurilishi ancha sustlashgan. Umuman, uning qurilishi 1920 - yilga kelib toʻla yakunlangan va shu yil 30 apreldan boshlab doimiy ravishda ommaviy namoz oʻqila boshlangan.

Amir Olimxon ham din masalalari va diniy bilim masalalariga juda eʼtiborli inson boʻlganligini Buxoro sovetlar qoʻliga oʻtib oʻzi boshqa musofir yurtlarda qochoq sifatida yurgan bir holatda, sharoitning qiyin boʻlishiga qaramasdan oʻz farzandlari va atrofidagi kishilar farzandlarining savodli boʻlishi va diniy ilm olishi uchun qaygʻurganligi hamda Futuh qalʼasi ichida diniy ilm dargohini ochganligi¹ va diniy ahkomlarga juda ehtiyotkor boʻlganligidan bilib olishimiz hamda ijobiy xulosa chiqarishimiz mumkin.

Amirlarning kunlik diniy ahkomlari haqidagi qimmatli maʼlumotlar Andreev va Chexovichning "Ark Buxari" asarida mufassal tasvirlangan. Asarda bomdod namozida amirning qay tarzda uygotilishi haqidagi nozik masalalar ham kòzdan qochmagan. Dastlab bomdod namozi bilan kunni boshlashgan. Uni bajarish "farzi ayn", majburiy diniy talab boʻlib, agar amir jamiki musulmonlar singari namozga beparvolikka yoʻl qoysa, falokat sifatida qabul qilingan. Chunki Buxoroning islom ulamolari amirni paygʻambar xalifasi, oʻrinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardi. Shuning uchun 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida yaratilgan uygʻotgich amirning bosh tomoniga qoʻyilgan boʻlib, ayni belgilangan vaqtda jiringlashga tayyor boʻlgan, lekin baʼzida u ham qattiq uxlab yotgan amirni uygʻotmasa, ular uygʻotuvchi soat paydo boʻlishidan ancha oldin mavjud boʻlgan eski sodiq usulga murojaat qilishgan. Bu usul esa xonaga yaqin atrofdagi xizmatkorlardan (mahramlardan) biri kirib, kirganligi aniq eshutilishi uchun asta-sekin nafas ola boshlagan. Agar bu yordam bermasa, amirning oyoqlarini jimgina silashni boshlagan, agar bu ham foyda bermasa qattiqroq qilgan va keyin haqiqiy uqalashga oʻtgan. Amir uygonib "Haqiqatan ham turish vaqti keldimi?" - deb soʻrasa, "Ta-sadduq shavam" (sizga fido boʻlay), — deya javob berishining oʻzi yetarli boʻlgan. Keyin amir yotoqdan turgan. Mahram shu zahoti yelkasiga chopon tashlagan - yozda yengil, qishda issiq - kirish dahlizidagi mos joyda tahorat olgan. Baland va tor boʻyinli, uzun hamda naqshinkor va nafis mis idishda, yaʼni oftobada ehtiyotkorlik bilan iliq suv tayyorlangan va tahoratdor uni qoʻllariga quyan. Yuzini, qoʻl va oyoqlarini islom qonun-qoidalariga kòra 3 martadan yuvgan. Yuvinish paytida amir terakdan tayyorlangan "hasran" deb ataladigan ingichka tor boʻlaklarga aylantirilgan maxsus gilamlarga turgan. Bu tanadan kirni olib tashlagan yuvilgan kir suv chayqalib, poldan uchib ketmasligi va shu bilan tahoratni buzmasligi uchun qilingan. Agar kir suv qaytib tananing biron yeriga uchsa bu tahorat mukammal boʻlmaydi deya hisoblangan. Amirning orqasida qoʻlida tayyor toza sochiq tutgan mahram turgan. Yuz-qoʻlini artib (oʻsha paytda mahram boshqa sochiq bilan oyoqlarini artib turgan) amir shosha-pisha kiyinib, namozga shoshilgan. Islomda "Bomdod" namozida, shuningdek, toʻrtinchi "Shom" namozida belgilangan vaqtni oʻtkazib yuborib boʻlmaydi, bunga amir ham ehtiyotkor boʻlgan. Qolgan namozlarni kòpincha davlat ishlari bilan boʻlib, qazo qilib oʻqigan. Amirning uchta shaxsiy imomi boʻlib, safarga chiqayotganda yoki biron bogʻda qolish uchun ulardan birini tanlagan, qolgan ikkitasi bu vaqtda uyda yashab, boshqa vazifalarini bajarishgan. Imomlarning uchta boʻlishining yana bir sababi soʻnggi buxorolik amirlar arkidagi hayotning noxush tomonlari – yozning dahshatli issigʻi va asosan siyosiy ruh bilan oʻralganligi sababli kòproq boshqa yerda istiqomat qilishgan. Ular Buxoro devorlaridan tashqarida yashagan. Masalan, Abdullahadxon Karmanada, Olimxon esa asosan Sitorayi Mahi Xosa qishloq saroyida yashagan. Natijada ular imomlarni oʻzlari bilan olib

¹ Sayid Mansur Olimiyning. Buxoro - Turkiston beshigi. - Buxoro, 2004. B-119

yurishgan va sayohatda birga бўлган имомларини “имоми јилов” деб номлашган. Ularga avloddan avlodga oʻtadigan vaqf mulklarining ortidan oʻzlariga toʻq darajadagi hayot kechirganliklari uchun koʻpincha maosh berilmagan, ammo juda katta katta hadiyalar berilgan. "Azon"ni (namozdan oldingi chorlovni) soʻfi jimgina oʻqigan, chunki, birinchidan, bu vaqt umumiy namoz uchun moʻljallanmagan, eng muhimi, namozning oʻzi ham koʻpincha nomuvofiq vaqtda oʻqilgan. Shuningdek, chaqiruvning baland ovozda eʼlon qilinishi sharmandalik sifatida qabul qilinishi mumkin edi.¹ Boz ustiga, bu namozda oilasi, amaldorlari va amirning oʻzidan boshqa hech kim boʻlmagan. Qizigʻi shundaki, bu va boshqa imomlar (hatto katta masjidlarda ham katta bayramlar namozlarida) hech qachon amir huzurida oldinga qadam qoʻyishga va namozga boshchilik qilishga jazm qilolmagan; aksincha, har safar u amirga yuzma-yuz turgan bir holatda qaragan. Amir unga bosh irgʻab, oldinga siljishni koʻrsatgandan keyingina oʻz oʻrnini egallab, namozni boshlagan. Bu amir "imom ul-muslimin" hisoblangani uchun qilingan, yaʼni amir musulmonlarning imomi va u namozda yetaklovchi boʻlishi kerak edi. Bu huquq har safar xonlikning har bir imomi tomonidan amir huzurida uning buyrugʻisiz namozni boshlamagani bilan taʼkidlangan. Amirning uzoq vaqt namoz oʻqish uchun vaqti boʻlmagan va shuning uchun ham aqlli imom, begonalar yoʻqligida, aql bovar qilmaydigan tezkorlik bilan farz qilingan namoz va "rakat"larni oʻqigan. Namoz tugagach, salomxonaga borishgan. Kundalik amirlik faoliyati boshlangan. Sogʻra soat oʻn ikkidandan oʻn besh daqiqa oʻtganda peshin namozi boshlangan. Bunda ham imom bilan bomdod namozidagi kabi munosabat qilingan. Amir boshqalardan farqli ravishda, juma namozi, Qurbon va Ramazon hayiti namozlaridan tashqari barcha namozlarni uyda oʻqigan, yaʼni masjidga bormagan.

Keyingisi asr namozidan oldin amir paygʻambarimizning sunnatlari boʻlgan qaylula uyqusiga ketgan. Amirni uygotish uchun bomdod namozida qoʻllanilgan usullardan foydalanishgan. Asr namozi birinchi yulduz chiqishidan bir soat oldin oʻqilgan. Undan song shom namozini oʻqigan. U ham bomdod namozi singari kechiktirmasdan oʻqilgan. Sogʻra bir yarim soat oʻtgandan song oxirgi beshinchi namoz xufton oʻqilgan. Bu namozda shoshqaloqlik qilish shart emas edi, ammo soat oʻn ikkidandan kechikmay oʻqilgan. Amir xuftondan keyin oʻz haramiga borgan. U yerdan haramidagilardan birini tanlagan. Islomda faqat toʻrtta xotinlikka ruxsat etilgan. Ammo qullik davrida yana haramida qancha qul ayollar boʻlishi ahamiyatsiz deb hisoblashgan. Bu esa baʼzi yerlarda salbiy talqinlar boʻlishiga olib kelgan. Masalan, Amir Muzaffar koʻpxotiniligi va maishatparastligi bilan tarixda qolgan. Natijada, oʻsha davr tarixnavislari uni juda qattiq qoralab diniy ahkomlarida va kundalik siyosiy faoliyatda sustkashlik qilib xalqning orzusidagi amir sifatida namoyon boʻlmayotganligini taʼkidlaydi. Baʼzi amirlar esa kech tushishi bilan maishatga va aysh-ishratga berilib, xufton namozini gʻira-shira tong otar bir paytda oʻqigani hamda bomdodni oʻqib, sogʻra oqshom ziyofati taʼsiri ketmagani bois soat ongacha uxlagani hamda davlat ishlariga beparvolarcha yondashganini juda radikal tarzda koʻrsatib beradi. Bunday maʼlumotlarga asosan, Ahmad Donishning “Risola yoxud Mangʻitlar xonadoni saltanatining qisqacha tarix” hamda Fitratning "Amir Olimxonning hukmronlik yillari" kabi asarlarda duch kelishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, amirlik davrida din juda katta ahamiyatga ega boʻlgan. Xususan, "amir-ul moʻminin", yaʼni butun musulmonlarning amirlarining bu sohadagi barcha faoliyatlari xalqqa oʻrnak sifatida koʻrsatilgan. Haqiqatdan ham, din juda katta kuchga egadir. Baʼzi Buxoro amirlari faqat oʻz manfaati, aysh-ishratini oʻrniga xalq manfaatlarini koʻzlab, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan yangilash uchun davlatda islohotlarni amalga oshirganida, yillar davomida toʻplab yotgan molu-davlati bilan ruslar domiga tushib ketmas edi. Madrasalardagi eskicha oʻqitish tizimi, mutaassiblik, jaholatparastlik va zamonaviy dunyoviy ilmlarning yoʻqligi va baʼzi amirlarning xalqqa oʻrnak boʻla olmaganligi yetuk kadrlarning yetishib chiqishi uchun toʻgʻanoq boʻlayotgan edi. Zotan, islom dini qoidalarini yaxshi bilib unga amal qilguvchi amirlar hech qachon xalqqa nohaqlik qilib, adolatsizlik yoʻlidan yurmas va uning ilm olishi hamda yetuk kadr boʻlishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratgan boʻlar edi.

¹ М.С.Андреев О.Д.Чехович. Арк Бухари. – Душанбе. ”Дониш”, 1972. Б - 95.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд Манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. - Тошкент, "Ўзбекистан миллий энциклопедия", 2014.
 - Сайид Мансур Олимий. Бухоро - Туркистон бешиги. - Бухоро, 2004.
 - М.С.Андреев О.Д.Чехович. Арк Бухари. – Душанбе. "Дониш", 1972.
 - Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик йиллари. - Тошкент. "Минҳож", 1992.
- <https://atelim.com/tarixi-nofeiy.html?part=3>

XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO‘QON-BUXORO MUNOSABATLARI

Dusaliev Muysin Tura o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrası o‘qituvchisi
muysin454@gmail.com
Tel: +998971159899

XVIII asrning oxiriga kelib Qo‘qon xonligining birlashish jarayoni oxiriga yetadi. Bu davr Qo‘qon xoni Olimxonning hukmronlik davriga to‘g‘ri keladi. Bu hukmdorning davrida Qo‘qon xonligining tarkibiga Toshkent va Chimbkent ham qo‘shib olinadi. Bu vaqtga kelib Qo‘qon Farg‘onaning madaniy hamda iqtisodiy markaziga aylangandi. XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligi qo‘shni davlatlar bilan aloqalar o‘rnatib, ularga o‘z elchilarini ham yuboradi¹.

1805 yili yetti yillik harakatlardan so‘ng Olimxon Xo‘jandni, 1806-yili esa O‘ratepani zabt qilib, itoatiga kirgizadi. Bu hudud, albatta, Buxoro bilan Qo‘qon o‘rtasida doimo ziddiyatli, ya‘ni geosiyosiy jihatdan qaraganda muhim hududlardan hisoblangan. Olimxonning egallaganidan ko‘p o‘tmasdan O‘ratepa mustaqillikni qo‘lga kiritadi. Bu davrda Buxoroda Mang‘itlar sulolasi hukmronlik qilardi. Buxoroning siyosiy, iqtisodiy mavqei yaxshi edi. Buxorodan mag‘lubiyatga uchragan Olimxon siyosatini o‘zgartiradi. U xonlikni hududiy jihatdan kengaytirish siyosatini Toshkentga qaratadi. XIX asrning boshi Buxoro amirligi tarixi Amir Haydarning hukmdorlik davri bilan boshlanadi. Bu hukmdor Buxoroning davlatchiligi tarixida sezilarli darajada iz qoldirgan. Buxoroda Mang‘itlarning hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda kurashda bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan. Bu muvaffaqiyatlar, ayniqsa, uning tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘z davrida murakkab bir jarayonda tashqi siyosatda xalqaro aloqalarni to‘g‘ri idrok eta olganligi bilan ajralib turadi. Buxoroda Amir Haydarning hukmronlik davri, Qo‘qonda Olimxon va Umarxonning hukmronlik yillariga to‘g‘ri keladi. Albatta, yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan Olimxonning tashqi siyosatini o‘zgartirishga majbur bo‘lganligining yana bir sababi Amir Haydar edi.

Amir Haydarning hukmronligi davrida amirlik hududlariga Turkmanistonning sharqiy qismi, Marv shahri, hozirgi Afg‘onistonning bir qismi, Tojikistonning Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent hududlari Urgut va Zarafshonning yuqori tomonidagi kichik tog‘li o‘lkalari ham kiritilgan edi.

Amir Haydar hukmronligi davrida Qo‘qon va Xiva xonliklari bilan siyosiy munosabatlar tobora keskinlashgan. Xususan, Buxoro amirligiga avvaldan tobe hisoblangan, Toshkent, Turkiston, O‘ratepa, Xo‘jand va boshqa shaharlarga qo‘qonliklarning tajovuzi avj olgan. 1807-1810 yillarda Amir Haydar Qo‘qon xoni Olimxon (1801-1810) bilan Toshkent, O‘ratepa, Jizzax, Zomin va boshqa viloyatlar uchun shiddatli janglar olib borishga majbur bo‘lgan va qo‘ldan chiqarilgan mamlakat hududlarini asl holiga keltirgan. Biroq, ichki siyosiy tanglikdan foydalanib, Amir Haydarning amakilari Umarbiy va Fozilbiylar Nasaf (Qarshi) ni egallashgan va Samarqand shahrida ham unga qarshi isyon ko‘tarishgan.

Amirlikdagi hukmdorlikka davogarlik qiluvchilarning va ayrim urug‘ vakillarning ayirmachilik harakatlari, amirlik yirik shaharlari va qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini

¹ Mirza Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2008. – B.8.

Kamolov Ixtiyor Nigmatullayevich. BUXOROLIK TAKINAXOTUN VA UNING SOHIBQIRON O'GLI.....	80
Olimova Iroda. BUXORO BUNYODKORLIGIDA MIRZO ULUG'BEKNING AMALGA OSHIRGAN SAY-HARAKATLARIDAN TARIXIY LAVHALAR.	81
Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi, Normatov Otabek Maxamatjonovich. BUXORODAGI MIRZO ULUG'BEK DAVRIGA OID TANHO INSHOOT – “ULUG'BEK MADRASASI” ...	84
Islomova Gulchiroy Muzaffar qizi, Utayeva F.X. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TIJORAT VA SAVDO MARKAZLARIGA E'TIBOR.....	87
Avliyakulova Nafisa Muzafarovna. BUXORO – XALQARO SAYYONCHILAR MARKAZI	88

**2-ШҶЪБА. БУХОРОНИНГ ХОНЛИКЛАР (АМИРЛИК) ДАВРИ
(ШАЙБОНИЙЛАР, АШТАРХОНИЙЛАР ВА МАНҒИТЛАР) ТАРИХИ
МАСАЛАЛАРИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-
ФАН, САНЪАТ ВА МАДАНИЯТ).....**

Ғаффоров Ш.С. БУХОРО ХОНЛИГИНИНГ АНТОНИ ЖЕНКИНСОН ЭСТАЛИКЛАРИДАГИ ТАВСИФИ	92
Шодмон Воҳидов, Гулпари Шарифова. (НА ОСНОВЕ КАТАЛОГА БИБЛИОТЕКИ САДРИ ЗИЯ).....	96
Абдукаримов Жамолiddин Аҳмадалиевич. Мирзо Абдулазим Сомий Бўстонийнинг “Тўхфаи шоҳий” асарига оид янги тадқиқот	100
Дилноза Жамолова. “ТАЪРУФИ МУСЛИМИН” ЖУРНАЛИ: БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ҲАҚИДА	103
Музробжон Абдуллаев, Расулбек Абдурасулов. АШТАРХОНИЙЛАР ДАВРИДА БУХОРО ХОНЛИГИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА СОЛИҚ ТИЗИМИ.....	107
Акбар Замонов. АБДУЛЛАХОН II ШАХСИЯТИГА НАЗАР	110
J.J.Majidov, H.Bobomurodova. SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO ME'MORCHILIGI.....	114
Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li. ASHTARXONIY UBAYDULLAXON II DAVRIDA BOBURIYLAR IMPERIYASI BILAN DIPLOMATIK ALOQALAR	115
Nargiza Isomiddinova Xusniddin qizi, Feruza Bobojonova Hayatovna. BUXORO XONLIGI TA'LIM TIZIMI.....	117
Гулирухсор Темирова. МИР МУҲАММАД АМИН БУХОРИЙ ВА УНИНГ “УБАЙДУЛЛАНОМА”.....	119
Norova Zilola Raxmatullo qizi, Utayeva F.X. BUXORO VA XIVA XONLIKLARINING TASHQI SAVDO ALOQALARI	121
Olimova Dilsora, Bobobjonova Feruza. BUXORO AMIRLARINING KUNDALIK DINIY AHKOMLARI.....	122
Dusaliev Muysin Tura o'g'li. XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QO'QON-BUXORO MUNOSABATLARI	126
Berdiyev Jamshid Panjiyevich. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR	129
Ҳусен Хайруллоевич ДЖУРАЕВ. БУХОРО САРОЙ ВА МАДРАСАЛАРИ, КУТУБХОНАЛАРИДА ФАОЛИЯТ КЎРСАТГАН МИРЗА, МУНШИЙ, ХАТТОТЛАР ВА КОТИБЛАР ТАРИХИ.....	132
Соҳиба ҚОДИРОВА. БУХОРОДА МУСИҚА САНЪАТИ РИВОЖИНИНГ МИЛЛИЙ-ЭТНИК ХУСУСИЯТЛАРИ	135
Ismailov G'afurjon Xasanovich. ISTANBULDAGI BUXORO TEKKESI – O'TMISH VA BUGUN.....	138
Normatov Otabek Maxamatjonovich. BUXORODAGI SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARI TARIXIDAN.....	143
Hamroyev Asliddin Umed o'g'li. AMIR HAYDAR MAKTUBLARIDA IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI	144